Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzdorligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	



YOG' – MOY SANOATI KORXONALARIDA SOLIQLAR HISOBI VA AUDITI JARAYONLARIDA TAHLILIIY AMALLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

A'zamova Aziza Olimjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0003-1083-4789

E-mail: zizaazamova@gmail.com

Annotatsiya: Mamlakatimizda soliq boshqaruvini takomillashtirish, ayniqsa sanoat tarmoqlarida – xususan, yog'-moy sanoati korxonalarida – soliq intizomi va shaffofligini ta'minlash, hamda byudjetga tushumlarni oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada yog' sanoati korxonalarining tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda soliq auditini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari chuqur tahlil qilinadi. Soliq imtiyozlari va preferensiyalarining samaradorligini oshirish, ularning raqobatbardoshlikka ta'siri, shuningdek sog'lom raqobat muhitini shakllantirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi. Shu bilan birga, maqolada mavjud soliq nazorati tizimidagi muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari soliq audit metodologiyasini takomillashtirish orqali sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: sanoat korxonasi, yog'-moy sanoati, iqtisodiy modernizatsiya, soliq boshqaruvi, soliq audit, soliq imtiyozlari, soliq preferensiyalari, raqobat muhiti, raqobatbardoshlik, fiskal siyosat.

Abstract: In the context of improving tax administration in our country, especially in the industrial sector — in particular, at oil and fat industry enterprises — ensuring tax discipline and transparency, as well as increasing budget revenues, remain urgent tasks. This article presents an in-depth analysis of the theoretical and practical foundations of organizing tax audits, taking into account the sector-specific characteristics of oil and fat industry enterprises. The study scientifically examines ways to enhance the effectiveness of tax benefits and preferences, their impact on competitiveness, and their role in forming a healthy competitive environment. Furthermore, the article identifies existing issues within the tax control system and develops proposals and recommendations to address them. The research findings aim to improve the financial stability and economic efficiency of industrial enterprises through the advancement of tax audit methodologies.

Key words: industrial enterprise, oil and fat industry, economic modernization, tax administration, tax audit, tax benefits, tax preferences, competitive environment, competitiveness, fiscal policy.

Аннотация: В условиях совершенствования налогового управления в нашей стране, особенно в промышленном секторе — в частности, на предприятиях масложировой промышленности — обеспечение налоговой дисциплины и прозрачности, а также увеличение поступлений в бюджет являются актуальными задачами. В данной статье проводится глубокий анализ теоретических и практических основ организации налогового аудита с учётом отраслевых особенностей предприятий масложировой промышленности. Научно освещаются вопросы повышения эффективности налоговых льгот и преференций, их влияние на конкурентоспособность, а также роль в формировании здоровой конкурентной среды. Кроме того, в статье выявляются существующие проблемы в системе налогового контроля и разрабатываются предложения и рекомендации по их устранению. Результаты исследования позволят повысить финансовую устойчивость и экономическую эффективность промышленных предприятий посредством совершенствования методологии налогового аудита.

Ключевые слова: промышленное предприятие, масложировая промышленность, экономическая модернизация, налоговое управление, налоговый аудит, налоговые льготы, налоговые преференции, конкурентная среда, конкурентоспособность, фискальная политика.



KIRISH

Hozirgi davrda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va samarali boshqaruvni ta'minlashda soliq boshqaruvi tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yog'-moy sanoati kabi strategik ahamiyatga ega tarmoqlarda soliq auditini samarali tashkil etish korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, byudjet tushumlarini oshirish hamda iqtisodiy xavflarni kamaytirish yo'lida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

So'nggi yillarda soliq qonunchiligining murakkablashuvi, soliq nizolari va ularning yechilishidagi muammolar, shuningdek, soliq audit xizmatlariga bo'lgan talabning sezilarli ortishi mamlakatda soliq nazoratining samaradorligini oshirish va uning nazariy-metodologik asoslarini yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, soliq auditining samarali tizimini shakllantirish va uni doimiy takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Soliq audit tizimining samaradorligi korxonalar mol-mulkini tezkor va malakali boshqarishga, soliq yukini rejalashtirishga imkon yaratib, soliq majburiyatlarini optimallashtirish, moliyaviy xavflarni kamaytirish va korxonaning umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilashda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun soliq auditini ilmiy asosda tashkil etish va takomillashtirish hozirgi iqtisodiy sharoitlarda korxonalar faoliyatining muhim omiliga aylangan.

Mazkur maqolada yog'-moy sanoati korxonalarida soliq auditini tashkil etish va uni takomillashtirishning metodologik jihatlari, shuningdek, soliq imtiyozlari va preferensiyalarining samaradorligini oshirish yo'llari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, soliq siyosatini yanada takomillashtirish hamda raqobatbardosh muhitni shakllantirishga qaratilgan samarali amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq auditining mohiyatini birinchi marotaba o'rganishga urinish I. A. Bazhin tomonidan amalga oshirilgan. U "audit" va "tekshiruv" kabi tubdan farq qiluvchi tushunchalarni tenglashtirgan bo'lsa-da, bu ikki tushuncha o'rtasidagi farqni chuqur anglash muhimdir. Soliq organlari tomonidan soliq hisobotlarini tekshirish jarayoni, Bazhin ta'kidlashicha, davlat vakolatiga ega bo'lgan "soliq nazorati" bo'lib, u qonun buzilishlari holatida jarimalar va boshqa sanksiyalarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, audit — bu mustaqil tijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan xizmat bo'lib, korxonaning hisob-kitoblarini qayta ko'rib chiqish va optimallashtirishga qaratilgan. Bazhin nazarida, bu ikki faoliyat turi soliq hisoboti va jarimalar kontekstida farqlanadi, shuning uchun ularni aralashtirmaslik lozim [1].

T. M. Guryeva soliq auditini hisob va soliq hisobotlarini tizimli tahlil qilish jarayoni deb biladi. Unga ko'ra, soliq audit nafaqat soliq to'lovlaridagi qarzdorlikni aniqlash, balki ortiqcha to'lovlarni ham fosh qilish orqali korxona moliyaviy oqimlarini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Guryeva soliq audit jarayonining ikki tomonlama — kamchiliklarni aniqlash va soliqlarni to'g'ri hisoblash — vazifalariga urg'u beradi. Bu yondashuv korxona boshqaruviga nafaqat soliq yukini kamaytirishga, balki moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlashga ham xizmat qiladi [2].

N. V. Dronina soliq auditini sifatli audit xizmatlarini ta'minlash maqsadida ilmiy asoslangan nazariy prinsiplarga tayangan holda amalga oshiriladigan kompleks tadqiqot jarayoni sifatida ko'radi. U soliq auditini faqat huquqiy mezonlarga amal qilishdan iborat emas, balki soliq majburiyatlarini optimallashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tizimli jarayon deb hisoblaydi. Dronina nazarida, soliq audit xizmatlari sifatini yaxshilash orqali nafaqat korxona moliyaviy holati, balki umuman iqtisodiy tizim samaradorligini oshirish mumkin [3].

A. Vasilenko esa soliq auditini uning amalga oshirish usullariga qarab to'rt asosiy turga ajratadi: bog'langan xizmat sifatida, alohida xizmat turi sifatida, maxsus topshiriq va umumiy auditning tarkibiy qismi sifatida. Bu tasnif soliq auditining faoliyat doirasidagi xilma-xillikni aks ettiradi va uni auditorlik xizmatlari tizimida qanchalik muhimligini ko'rsatadi. Vasilenko yondashuvi soliq auditining moslashuvchanligini va mijoz ehtiyojlariga moslashgan turli shakllarda amalga oshirilishini ta'kidlaydi [5].

T. Kristalyeva soliq auditini mijoz bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladigan professional xizmat sifatida ta'riflaydi. U soliq auditining moliyaviy hisobotlarni audit qilish jarayonidagi o'rni va uning mustaqil sifatida ham olib borilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Kristalyeva soliq auditini ichki va tashqi turlarga ajratadi, bu esa korxona ichki nazorat tizimlari bilan soliq siyosatini moslashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Uning fikricha, soliq auditining asosiy vazifasi korxonaning soliq qonunchiligiga muvofiq o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarishini ta'minlashdir [6].

D. Orlov mustaqil auditning soliq hisobotlarining ishonchililigini baholashdagi o'rni va ahamiyatiga e'tibor qaratadi. U soliq auditini qonuniy soliq to'lovlarni bajarishga doir konstitutsiyaviy majburiyatlarni ta'minlovchi



vosita sifatida ko'radi. Orlov nazarida, bu turdagi audit korxona uchun nafaqat moliyaviy hisobotlarning to'g'riligini tasdiqlash, balki soliqqa tortish jarayonidagi qonuniylikni ham kafolatlaydi, shuningdek, soliq organlari oldida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olishga yordam beradi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning nazariy va metodologik asoslari umumiy iqtisodiy adabiyotlar hamda iqtisodchilarning ilmiy maqolalari va ilmiy asarlaridan iboratdir. Tadqiqot jarayonida yog'-moy sanoati korxonalari vakillari bilan o'tkazilgan intervyular, ularning yozma va og'zaki fikrlarini tahlil qilish, ekspert baholari hamda jarayonlarni kuzatish usullari keng qo'llanilgan. Shuningdek, iqtisodiy hodisalar va jarayonlarga tizimli yondashuv asosida olib borilgan tahlillar, muallifning o'z tajribasi bilan solishtirma tahlillar, xulosalar, taklif va tavsiyalar ilmiy asosda ishlab chiqilgan.


Mavzuni o'rganish jarayonida umumiy iqtisodiy tadqiqot metodlaridan tashqari, ma'lumotlarni tizimlashtirish uchun maxsus yondashuvlar ham qo'llanilgan. Jumladan, solishtirma tahlil, nazariy va amaliy materiallarni yig'ish hamda tizimli tahlil kabi metodlar tadqiqotning asosiy ilmiy usullari sifatida xizmat qilgan. Ushbu yondashuvlar orqali mavzuning murakkabligi va ko'p qirrali jihatlari chuqur va keng qamrovli tarzda o'rganilib, ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yog'-moy sanoati korxonalari respublika aholisini o'simlik va hayvon yog'lari hamda moylari bilan ta'minlash, eksport hisobiga valyuta tushumlarini oshirishda muhim o'rin tutadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda respublikamizda 479 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda. 2024-yilda mazkur korxonalarning tovar aylanmasi 5,8 trln so'mni tashkil qilgani holda, ko'rsatilgan davr davomida Respublikadan xom, rafinatsiyalangan yoki fraksiyalangan o'simlik moylari va yog'larining eksport hajmi 3,4 baravarga oshib, 32,6 million AQSH dollariga yetdi.

Shu bilan birga, ushbu mahsulotlar importi 15 foizga kamayib, 245,4 million AQSH dollarini tashkil etdi. Ushbu tendensiya ichki ishlab chiqarishning faollashuvi va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikning oshayotganidan dalolat beradi.

Yog'-moy sanoati korxonalarini qo'llab-quvvatlash borasida hukumat tomonidan tizimli islohotlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, soha korxonalarining soliq qarzdorligi oshib borayotganligini ko'rish mumkin (1-rasm). Bu esa, o'z navbatida, yog'-moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditini takomillashtirish dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi.



1-rasm. Yog'-moy sanoati korxonalarining soliq qarzdorligi, mlrd so'm

Soliqlar tabiatan majburiy bo'lishiga qaramay, ular nafaqat davlat manfaatlariga xizmat qilishi kerak, balki korxonalar va boshqa soliq to'lovchilarning ham manfaatlarini aks ettirishi lozim. Bu manfaatlarning umumiyligi, ya'ni sherikligi, soliq tahlili orqali ta'minlanadi.



Soliq tahlili moliyaviy tahlil doirasida amalga oshiriladi, u iqtisodiy tahlilning ajralmas qismi hisoblanadi. Biroq, ushbu tahlil moliyaviy tahlilning bir qismini tashkil etganiga qaramay, nisbatan mustaqil bo'lim sifatida shakllangan bo'lib, o'zining aniq obyekt va vazifalariga ega. Shu bois, soliq tahlilining nazariy masalalarini o'rganishda aynan ana shu jihatlariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Hozirgi kunda soliq tahliliga oid bir qancha qarashlar mavjud. Ayrim iqtisodchilar uni mustaqil tahlil sifatida ko'rishni tavsiya etsa, boshqa guruh esa soliq tahlilini iqtisodiy tahlilning bir qismi deb biladi. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, qaysi yo'nalishda amalga oshirilishiga qaramay, ushbu tahlilning o'z nazariy asosga ega bo'lishi muhim ekanligi ta'kidlanishi kerak.

Soliq tahlili — iqtisodiy subyektlardagi soliqlar umumiy hajmini, ularning alohida turlarini, to'lov muddatlari va stavkalarining rioya qilinishini, soliq obyekt bilan taqqoslaganda soliq hajmining o'zgarish dinamikasini hamda bu o'zgarishlarga ta'sir etuvchi omillarni kompleks ravishda o'rganish sifatida tushuniladi. Ko'rinib turibdiki, soliq tahlili ma'lum darajada iqtisodiy va moliyaviy tahlildan farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, soliq tahlili obyekt va vazifalarining o'ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan ochib berishni talab qiladi.

Soliq tahliliga oid masalalarda rivojlangan bozor munosabatlariga ega xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy tahlilga bag'ishlangan olimlari asarlarida soliq tahlilining nazariy asoslariga kam e'tibor qaratilgani ta'kidlanishi lozim. Bu holat soliq tahlilining iqtisodiy tahlilning ajralmas qismi bo'lishiga qaramay, uning nazariy asoslari va metodologiyasining yetarlicha rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Bunday yondashuvlar esa amaliyotda soliq tahlilining samaradorligini cheklashi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yog'-moy sanoati korxonalaridagi soliqlar va majburiy to'lovlarni tahlil qilishga bag'ishlangan asarlar ko'proq iqtisodiy tahlilning amaliy jihatlariga e'tibor qaratgan. Ular, asosan, korxonaning moliyaviy faoliyatini baholash, soliqlarni hisoblash jarayonidagi xatolar va kamchiliklarni aniqlash hamda soliqlar bo'yicha yuridik va moliyaviy maslahatlar berishga qaratilgan. Shu bilan birga, tahlil obyekt sifatida yog'-moy sanoati korxonalarining faoliyatlari chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, soliq tahlilining uslubiy asoslari yetarlicha batafsil yoritilmagan [9].

Jadallashtirilgan amortizatsiya hisoblash usulini qo'llash natijasida vujudga keladigan xarajatlarni soliq bazasiga kiritish mexanizmini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, ushbu xarajatlarni "Davriy xarajatlari" schyotining "Boshqa xarajatlari" analitik bo'limida aks ettirish o'rniga, amortizatsiyalangan asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etayotganini inobatga olgan holda, ularni "Asosiy ishlab chiqarish" yoki "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotlarida hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Bu yondashuv amaliyotga tatbiq etilganda yog'-moy sanoati korxonalarining texnik va texnologik jihatdan yangilanishi, innovatsion uskunalar bilan jihozlanishi, mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligi oshishiga xizmat qiladi. Ilgari bu tartib davlat ulushi mavjud korxonalar uchun stimulyator sifatida amal qilgan. Shunday ekan, jadallashtirilgan amortizatsiya summalarini soliq bazasiga qayta qo'shish amaliyotini bekor qilish orqali xususiy va kichik biznes subyektlarining innovatsion rivojlanishiga yanada kengroq imkoniyatlar yaratilgan bo'lar edi.

Mulk solig'i tahlilining asosiy ma'lumot manbai sifatida rejalashtirilgan hisob-kitoblar xizmat qiladi. Bu hisob-kitoblar moliyaviy hisobotlar — 1-shakl "Balans", 2-shakl "Moliyaviy natijalar haqida hisobot", shuningdek, hisobvaraqlar rejasidagi 0100 – "Asosiy vositalar hisobvaraqlari", 0200 – "Asosiy vositalar amortizatsiyasi hisobvaraqlari", 0300 – "Moliya ijara shartnomasi asosida olingan asosiy vositalar hisobvaraqlari" kabi hisobvaraqlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, buxgalteriya hisoboti bo'yicha 10 va 13-jurnal-orderlar, shuningdek, boshqa qo'shimcha manbalar ham soliq tahlilida muhim axborot bazasini tashkil qiladi.

Shuningdek, soliq tahlilida foydalaniladigan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchligi tahlil natijalarining to'g'riligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, yog'-moy sanoati korxonalarining moliyaviy hisobotlari va soliq hujjatlari muntazam ravishda tekshirilishi, ularning muvofiqligi ta'minlanishi zarur. Soliq tahlili nafaqat soliq to'lovchilar uchun, balki davlat organlari uchun ham soliq siyosatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega [12].

Natijada, soliq tahlilining nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirgan holda, ularni yanada rivojlantirish va takomillashtirish zarur. Bu esa nafaqat korxonalarning soliq yukini samarali boshqarishga yordam beradi, balki davlatning soliq tushumlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, kelajakdagi tadqiqotlarda soliq tahlilining nazariy asoslari va metodologiyasini yanada chuqurroq o'rganish, yangi usullar va vositalarni joriy etish muhimdir.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) davlat byudjetiga o'tkaziladigan soliqlar tarkibida muhim rol o'ynaydi. QQS soliqlarga tortish obyekt, asosan, tovarlar sotilishi, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromad miqdoriga asoslanadi. Bunda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish jarayonidagi moddiy xarajatlar summasi hisobdan chiqariladi. Shu tarzda, QQS daromadning sof hajmiga nisbatan hisoblanadi.

Soliqqa tortiladigan aylanma (aylanma hajmi) tarkibiga, shuningdek, savdo aylanmasiga kirmaydigan daromatlarning xarajatlardan oshgan qismi ham kiritiladi. Agar savdo aylanmasiga kirmaydigan operatsiyalarning xarajatlari ulardan olingan daromaddan oshsa, soliqqa tortiladigan baza shu oshish miqdoriga kamaytiriladi.



Savdo aylanmasiga kirmaydigan daromadlar tarkibiga korxonalar tomonidan moliyaviy yordam va maxsus maqsadli jamg'armalarga kiritilgan mablag'lar va boshqa aktivlar kiradi. Shuningdek, to'langan jarimalar va soliq to'lovlari shaklidagi summalar ham shu qatorda hisobga olinadi [11].

Soliq tahlilining obyekti sifatida bozor sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalar (tadbirkorlik subyektlari) ning iqtisodiy faoliyatidagi soliqlar hamda ularga bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va hodisalar o'rganiladi. Ushbu tahlil turli ma'lumot manbalarida — me'yoriy hujjatlar, reja hujjatlari, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobotlar va boshqa tegishli ko'rsatkichlar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Tahlil jarayonida yuzaga kelgan, hozirgi va kelajakda yuz berishi kutilayotgan obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar ta'sirida soliqlarning holati baholanadi. Soliq hisob-kitoblarning aniqligi, soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lash holatlari tekshiriladi, shuningdek, soliqlarni hisoblash va to'lash tartibini takomillashtirish yo'llari ishlab chiqiladi.

Xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa rivojlangan iqtisodiyotlarda, qo'shilgan qiymat solig'ini tahlil qilish va soliqlarni boshqarish uchun ilg'or mexanizmlar hamda axborot texnologiyalari keng qo'llaniladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida QQS tizimi markazlashtirilgan elektron monitoring asosida ishlaydi, bu esa soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning real vaqt rejimida kuzatilishiga imkon yaratadi. Natijada, soliq to'lovchilarning soliqqa bo'lgan intizomi oshadi va davlat byudjetiga tushumlar samarali nazorat qilinadi.

Shuningdek, AQShda korxonalarning soliq yukini optimallashtirish uchun keng qamrovli soliq auditlari va soliq maslahatchilari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bu yerda soliq tahlili faqat soliq qonunchiligi asosida emas, balki korxonaning moliyaviy strategiyasi bilan integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Bu usul korxonalarga soliqlarni rejalashtirish va nazorat qilish jarayonida yuqori darajadagi samaradorlikka erishishga yordam beradi.

Bundan tashqari, Yaponiya va Janubiy Koreyada soliq tahlili va audit jarayonlarida sun'iy intellekt hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari keng joriy qilinmoqda. Ushbu texnologiyalar soliqlarni hisoblashdagi xatolarni kamaytirish, soliq to'lovchilarning xatti-harakatlarini oldindan prognoz qilish hamda soliq nazoratini takomillashtirish imkonini beradi.

O'z navbatida, O'zbekiston uchun bu xorijiy tajribalarni o'rganish va joriy etish, ayniqsa elektron soliq hisoboti tizimlarini takomillashtirish, soliq auditining sifatini oshirish va korxonalar uchun soliq yukini boshqarishni samarali qilish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.

Ushbu soliq tahlili ta'rif mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, nazariy jihatdan quyidagicha asoslanishi mumkin. Soliq tahlilining obyekti bo'lmish iqtisodiy jarayonlar, soliqlar va ularning to'lanishi bilan bog'liq harakatlar bexosdan yoki tasodifan yuzaga kelmaydi, balki ular ma'lum ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Ushbu omillarning ta'siri boshqa soliq bilan bog'liq fanlarda chuqur o'rganilmaydi; u faqatgina soliq tahlilida tadqiq qilinib, uning obyekti va mazmunining asosini tashkil etadi.

Bundan tashqari, iqtisodiy faoliyat natijalarini, xususan soliq ko'rsatkichlarini aniq baholamasdan, soliq bilan bog'liq ijobiy va salbiy omillarni tahlil qilmasdan, soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lashni ta'minlash qiyin bo'ladi.

Soliq tahliliga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, soliq tahlilining obyekti sifatida faqat amaldagi soliq'larga bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan cheklanish yetarli emas. Tahlilning maqsadi mavjud natijalarni adolatli baholash bilan bir qatorda, ayniqsa soliq'lardagi o'zgarishlarni o'rganish va ushbu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish orqali tahlil qilinayotgan obyektning iqtisodiy va moliyaviy holatini yaxshilashdan iboratdir. Chunki soliq — davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida yetakchi o'rin tutadigan iqtisodiy mexanizm hisoblanadi.

Mazkur xulosa soliq tahlilining obyekti nafaqat to'langan va hisoblangan soliqlarni, balki kelajakda to'lanishi kutilayotgan soliqlar hamda ular bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'z ichiga olishini ko'rsatadi. Chunki soliqlar miqdori bevosita ushbu jarayonlar va ularning natijalari bilan bog'liqdir.

Soliq tahlili ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: korxonalar (soliq to'lovchilar) tomonidan bevosita ichki tahlil va soliq organlari tomonidan tashqi tahlil. Har ikki yo'nalish o'ziga xos vazifalar va metodlarni o'z ichiga oladi hamda iqtisodiy faoliyatda soliqlarni to'g'ri hisoblash va boshqarishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ichki soliq tahlili — bu korxona ichidagi hisob-kitoblarning to'g'riligini, soliq majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishini, soliqlarni optimallashtirish va soliq tavakkalchiliklarini kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan tahlildir. Mazkur tahlil korxona rahbariyati hamda moliyaviy-xo'jalik bo'limlari tomonidan bajariladi va quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: soliq hisobotlari va tegishli hujjatlarni tekshirish, soliq stavkalari va imtiyozlarining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini tahlil qilish, ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish.

Tashqi soliq tahlili esa soliq organlari tomonidan korxonalarning soliqqa oid faoliyatini qonunchilikka muvofiqligini aniqlash, soliqlarni hisoblash va to'lashdagi kamchiliklarni fosh etish, soliq qonunbuzarliklariga nisbatan chora ko'rish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu tahlil soliq siyosatini takomillashtirish, soliqlarni yig'ishni samarali tashkil etish va davlat byudjetining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, soliq tahlilining maxsus yo'nalishlari ham mavjud bo'lib, ular soliq risklarini aniqlash va boshqarish, soliqlarni optimallashtirish, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni monitoring qilish hamda soliq



imtiyozlari samaradorligini baholash kabi sohalarni qamrab oladi. Bu yo'nalishlar korxonalar va davlat organlari uchun soliqlarni boshqarishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va qo'llash imkonini beradi.

Soliq tahlilining yuqorida qayd etilgan yo'nalishlari bir-birini to'ldirib, iqtisodiy subyektlarning soliqqa oid majburiyatlarini to'liq va qonuniy bajarish, hamda davlat soliq siyosatini samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Moliyaviy soliq tahlili iqtisodiy modernizatsiya sharoitida korxonalar va davlat o'rtasidagi soliq munosabatlarini mukammal boshqarish uchun muhim vosita hisoblanadi. U nafaqat soliqlarni hisoblash va to'lovlarni nazorat qilish bilan cheklanmaydi, balki iqtisodiy jarayonlarni chuqur o'rganish, soliq majburiyatlarini optimallashtirish hamda soliq siyosatini samarali yuritish imkonini beradi. Shuning uchun, moliyaviy soliq tahlilining asosiy yo'nalishlari va ularning amaliy ahamiyati quyidagicha izohlanadi:

Soliq bazasining sifat va tarkibini tahlil qilish. Bu yo'nalishda soliq obyekti va uning tarkibiy qismlari — soliqqa tortiladigan aktivlar, daromadlar va xarajatlar chuqur tahlil qilinadi. Soliq bazasidagi o'zgarishlar sabablari aniqlanib, soliqqa tortiladigan qiymatlarning to'g'ri va qonuniy hisoblanganligi baholanadi. Natijada, soliqlarni o'z vaqtida va to'liq hisoblash imkoniyati ta'minlanadi.

Soliq stavkalari va soliq imtiyozlarining tahlili. Bozordagi o'zgarishlarga muvofiq, soliq siyosatidagi ta'sirlar chuqur o'rganiladi. Soliq stavkalari va imtiyozlarning amaldagi qonunchilikda to'g'ri qo'llanilishi, ularning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshlikni oshirishdagi roli baholanadi. Bu yo'nalish davlatning soliq siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Soliq yukining samaradorligini baholash. Soliq yukining iqtisodiy faoliyatga ta'siri, xususan korxonaning moliyaviy barqarorligi, investitsion faolligi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga bo'lgan ta'siri aniqlanadi. Soliq yukining ortishi yoki kamayishi korxonaning rentabelligiga qanday ta'sir qilayotgani tahlil etiladi.

Soliq to'lovlarining muddatlari va sifatini tahlil qilish. Soliq majburiyatlarining o'z vaqtida va to'liq bajarilmasligi natijasida yuzaga keladigan jarimalar, moliyaviy oqibatlar va tavakkalchiliklar tahlil qilinadi. Soliq to'lovchilarni tartibli to'lovga undovchi monitoring tizimlari va ichki nazorat mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Soliq risklari va ularni boshqarish. Soliq qonunchiligining murakkabligi, noaniq talqinlar, tekshiruvlar va boshqa omillar tufayli yuzaga keladigan salbiy holatlarni bartaraf etishga qaratilgan yo'nalish hisoblanadi. Ichki audit tizimlari yordamida xatoliklar aniqlanadi va minimallashtiriladi.

Soliq siyosatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Soliq yukini kamaytirish, byudjet tushumlarini oshirish, korxonalar faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha takliflar beriladi. Tavsiyalar, xususan, qonunchilikni yangilash, soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish va nazorat tizimini takomillashtirishni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi yo'nalishlar orqali moliyaviy soliq tahlili nafaqat soliqlarni to'plashni tartibga soladi, balki iqtisodiy subyektlar faoliyatining samaradorligini oshirish, soliqqa oid qonunchilikni takomillashtirish va soliq tizimini yanada adolatli qilish uchun zamin yaratadi.

Shu bilan birga, soliq tahlili korxonalarga soliq majburiyatlarini oldindan bashorat qilish, ularni boshqarish va rejalashtirish imkonini beradi. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Soliq tahlilining kompleks va tizimli yondashuvi davlat hamda korxona manfaatlarini uyg'unlashtirishda va iqtisodiyotning barqaror rivojlanish yo'lini aniqlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida yog'-moy sanoati korxonalarda soliq auditini takomillashtirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Avvalo, soliq hisob-kitoblarini raqamlashtirish va avtomatlashtirishni keng joriy etish zarur. Bunday yondashuv soliq hisobining aniqligi va operativligini oshirishga, shuningdek, auditorlik jarayonlarini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, yog'-moy sanoatida faoliyat yuritayotgan soliq mutaxassislari va auditorlarning malakasini muntazam oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada amaldagi soliq qonunchiligi, xalqaro standartlar va ilg'or audit metodologiyasi asosida malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur hisoblanadi.

Soliq auditi jarayonida diagnostika va tahlil usullarini keng qo'llash lozim. Bu usullar soliq hisobotlaridagi xatolarni erta aniqlash, moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish hamda soliq majburiyatlarini optimal darajada bajarish imkonini beradi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari va preferensiyalarini iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqish, ularni ayniqsa raqobatbardosh va innovatsion tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Soliq to'lovchilar va davlat soliq organlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvini yaxshilash orqali axborot tizimlarini integratsiyalash, shuningdek, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash muhimdir. Bundan tashqari, korxonalarda soliq rejalashtirishni boshqaruv tizimining ajralmas qismi sifatida joriy etish, soliq majburiyatlarini qonuniy yo'llar bilan optimallashtirish imkoniyatini yaratadi.



Korxonalarda soliq tahlilini zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirish, shuningdek, soliq auditini ichki nazorat tizimlari bilan uyg'unlashtirish lozim. Bu esa ichki boshqaruv samaradorligini oshirish va soliq xavfini kamaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Soliq siyosatini yanada takomillashtirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida doimiy muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, onlayn soliq auditini joriy etish va uning axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida zamonaviy texnologiyalar va himoya mexanizmlaridan foydalanish zarur.

Nihoyat, korxonalar uchun soliq audit bo'yicha metodik yordam va maslahatlar berish tizimini yo'lga qo'yish orqali ularning soliq majburiyatlarini to'g'ri, qonuniy va o'z vaqtida bajarishi ta'minlanadi. Barcha taklif va tavsiyalar, o'z navbatida, korxonalar faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, soliq yukini optimallashtirish va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bazin, I. A. *Organization and Technology of Tax Audit: On the Example of Contractor Construction Organizations: Diss.... Cand. Econ. Sciences* / I. A. Bazin. — M., 2007. — 250 p.
2. *Tax Audit (Advanced Level): Textbook* / A. V. Petukh, M. F. Safonova, I. N. Kalinina, D. S. Reznichenko. — Krasnodar: KubGAU, 2018. — 208 p.
3. Guryeva, T. M. The Essence of Tax Audit // *Taxes*. — 2007. — No. 4. — P. 23–26.
4. Yerofeeva, V. A. *Practical Audit: Textbook* / V. A. Yerofeeva, V. A. Piskunov, T. A. Bityukova. — Moscow: Yurait, 2016. — 350 p.
5. Vasilenko, A. A. Using the Prerequisites for Compiling Accounting Reports at Various Stages of Audit // *Bulletin of Volgograd State University. Economics*. — 2015. — No. 3. — P. 125–134.
6. Sheshukova, T. G., Orlov, D. V. Tax Audit as an Independent Direction of Audit Activity // *Bulletin of Perm University. Series: Economics*. — 2011. — No. 1. — P. 62–70.
7. Orlov, D. V. On the Question of the Concept of "Tax Audit" // *Bulletin of Perm University. Series: Economics*. — 2011. — No. 4. — P. 6–17.
8. Pardayev, M. K. *Theory of Economic Analysis*. — Textbook. — Samarkand: Zarafshon, 2001.
9. Боронов, Б. Ф. Ёф-мой махсулотлари ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобининг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш // *ISSN 2181–3191*. — VOLUME 1, ISSUE 7 — 2022–OCTOBER.
10. Боронов, Б. Махсулот таннархини ҳисоблашда умумишлаб чиқариш харажатларининг ўрни ва уларнинг ҳисобини такомиллаштириш // *Economics and Innovative Technologies*. — 2022. — Vol. 10, No. 6. — B. 31–42.
11. Азларова, Д. Ўзбекистоннинг соғлом рақобат муҳити шароитида ёф-мой саноати корхоналари персоналини бошқариш // *Архив научных исследований*. — 2022. — Vol. 4, No. 1.
12. Ровенских, В. А., Слабинская, И. А. Налоговый аудит в современных условиях // *Вестник Белгородского государственного технологического университета им. В. Г. Шухова*. — 2013. — No. 5. — С. 126–129.
13. Усатова, Л. В. Организация процесса налогового аудита расходов // *Экономический анализ: теория и практика*. — 2008. — No. 24. — С. 26–31.
14. Муҳамедов, А., ва бошқ. Ишлаб чиқариш харажатларини туркумлаш ва уларнинг ҳисоби // *Iqtisodiyot va ta'lim*. — 2021. — No. 5. — B. 351–358.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>